



**THE COOPERATION OF EDUCATORS AND PARENTS IN  
DEVELOPING READING HABITS IN PRESCHOOL CHILDREN**

**Nomozova Moxinur**

1st-year Master's student in Pedagogy International Innovative University  
**Annotation** the article the importance of formation reading cultures among children of preschool age is discussed. Methodical instructions for teachers of preschool educational establishment on training bibliophile at the child, and are given recommendation on cooperation with families in that regards.

**Keywords:** the innovative mechanism, mental feelings and intuition, the center of the literature

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA  
KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHI VA OTA  
ONALARNING XAMKORLIGI**

Xalqaro innovatsion universiteti 1-kurs Pedagogika yo'nalishi talabasi  
magistranti **Nomozova Moxinur**

**Annotatsiya** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobga nisbatan mehr-muhabbatni shakllantirishning ahamiyati to'g'risida fikrlar bildirilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyachilar uchun bolada kitobxonlikni tarbiyalashga doir metodik ko'rsatmalar, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining oila bilan hamkorlik ishlariga doir tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** innovatsion mexanizm, ruhiy hissiyot va intuitsiya, adabiyot markazi, targ'ibot, ma'naviyat, hamkorlik

**СОТРУДНИЧЕСТВО ВОСПИТАТЕЛЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В  
ФОРМИРОВАНИИ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ  
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**Номозова Мохинур** магистрантка 1 курса по направлению «Педагогика»

Международный инновационный университет





**Annatatsiya** V statye izlagayetsya znachimost formirovaniya chitatelskoy kulturi u detey doshkolnogo vozrasta. Dani metodicheskiye instruksii dlya vospitatelnits doshkolnogo obrazovatel'nogo uchrejdeniya po vospitaniyu u rebenka lyubvi k knige, a takje rekomendatsii po sotrudnichestvu vospitateley doshkolnogo obrazovatel'nogo uchrejdeniya i semi.

**Klyucheviye slova i ponyatiya:** innovatsionniy mexanizm, psixicheskiye chuvstva i intuitsiya,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-son qarori, 2017 yil 30 sentabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5198-son farmoni hamda «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-3305-son qarorlari qabul qilindi.

Jumladan:

- maktabgacha ta’lim tizimiga oid meyoriyhuquqiy hujjatlarning takomillashtirilganligi;
- maktabgacha ta’limni amalga oshirishning umumiy turdagi, qisqa muddatli, xususiy va oilada amalga oshirishga qaratilgan alohida dastur hamda metodik qo‘llanmalarining yaratilganligi;
- ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish orqali ta’lim olishning ixtiyoriy usulidan foydalanishga imkoniyatlar yaratilganligi;
- ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda xorijiy tajribalarni o‘rganish va ilg‘or ish va texnologiyalarni amalda qo‘llash uchun xorijiy davlatlar bilan xamkorlik ishlarining yo‘lga qo‘yilganligi;
- sifatli o‘quv-metodik va didaktik materiallar (shu jumladan, o‘yinlar va o‘yinchoqlar) va badiiy adabiyotlarni tayyorlash tizimining takomillashtirilib borilayotganligini ko‘rsatish mumkin.





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

Maktabgacha ta'lim mazmunini yaxshilash va belgilangan talablarni bola ongiga sifatli singdirish bugunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu masalaning yechimida tashkil etilayotgan har bir mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari faoliyat turlari, foydalanilayotgan usul va vositalar mazmun va salohiyati yotadi. Ma'lumki, maktabgacha yosh davridagi bola uchun tashkil etiladigan faoliyat turlari mazmun-mohiyatining bola tomonidan oson o'zlashtirilishini ta'minlash uchun qulayliklarning hisobga olinishi talab etiladi. Bola ta'limtarbiyasi uchun qo'llanilayotgan zamonaviy usul va vositalar turli-tuman, yorqin va jonli bo'lib, bolada qiziqish uyg'ota olmas ekan, belgilangan maqsadga erishish amri maholdir. Shu o'rinda maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida kitob va undan foydalanishning o'rni xususida to'xtalib o'tsak. Ma'lumki, bola dunyoga kelar ekan, uning ruhiyatida soflik, adolat, ishonch kabi go'zal fazilatlar birga dunyoga keladi. Endi bola qalbidagi bu go'zal fazilatlarni saqlab qolish uchun oila, jamiyat va ta'lim tizimi bunga tayyor bo'lmog'i kerak. Mana shu yuksak vazifani amalga oshirish uchun davlatimizda barcha shartsharoitlar yaratilishi borasida keng ko'lamli ishlar Tashkillashtirilgan bo'lib, faqat undan unumli va oqilona foydalanish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Kitobxonlik insonni ma'naviy boyitib, uning ma'naviy-ma'rifiy barkamolligini ta'minlaydi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi ma'naviy tafakkurining barqarorligiga bog'liqdir. Bu barqarorlik bolalarga ona qornidan boshlab kitobga bo'lgan mehr va kitobning hayot so'qmoqlarida uchraydigan ma'lum bir masalalar yechimida qo'l kelishini ilg'ab olishga o'rgatish orqali vujudga keladi. Bolaga chaqaloqligidan boshlab, ya'ni beshikda yotgan davridan alla, ertak, hatto she'rlarni obrazli aytilsa, garchi u tushunmasada, eshitadi, mayin ohangni ilg'aydi. Bu jarayon to'xtab qolmasligi lozim. Asar qaxramonlari nomiga bolaning ismini qo'yib aytilsa, bu kichkintoyga juda yoqadi. Masalan: Mening qizim «Zumrad» kabi aqlli yoki O'g'lim Sardorbek «Rustam»dek pahlavon kabi so'zlardan foydalanishi ham bolada ertak, xikoyalar qahramonlariga qiziqishni oshiradi. Bolada kitobga munosabat shu tariqa shakllantirila boshlanadi. Kitobxonlik maktabgacha ta'lim





# JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

yoshidagi bolalarni har tomonlama, jismonan, ruhan va aqlan rivojlanishida muhim o‘ringa ega. Xalq ta’limi vazirining 2016 yil 30 dekabrda 315-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707- son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha tadbirlar rejasining 4-bandiga muvofiq, maktabgacha ta’lim muassasalarida kichik kutubxonalarini tashkil etish, bolalarning badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini barvaqt uyg‘otish maqsadida bolalar va ota-onalar uchun zarur bo‘lgan badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash, shuningdek, pedagog kadrlar va bolalar uchun kichik kutubxona faoliyatini tashkil qilish maqsadida S.S.Mirjalilova, I.V.Grosheva, M.Nishanovalarning «Maktabgacha ta’lim muassasalarida kichik kutubxona yaratish, uning faoliyatini tashkil etish va bolalar badiiy adabiyotidan samarali foydalanish bo‘yicha» yo‘riqnomasi asosida amaliy ishlar olib borilmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalarida kitobga qiziqish uyg‘otish uchun yetarli va qulay sharoitlarni yaratish zarur. «Maktabgacha ta’lim muassasalarida kichik kutubxona yaratish, uning faoliyatini tashkil etish va bolalar badiiy adabiyotidan samarali foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomada maktabgacha ta’lim muassasalarida kichik kutubxonani tashkil etishga bir qator talablar belgilab berilgan:

- kichik kutubxona joylashadigan xonani aniqlash.
- xonani zarur jihozlar, ya’ni kitoblarni namoyish qilish va saqlash uchun javon, bolalar va ota-onalar uchun stol va stullar bilan jihozlash;
- qulay joylashuvi – shovqin va oyoq tovushlari bo‘lmasligi uchun eshikdan uzoqroqda tinch joy tanlash;
- kunduzgi va kechki vaqtlarda yaxshi yoritilganligi – bolaning ko‘rish qobiliyatiga zarar yetkazmaslik uchun yorug‘lik manbaiga yaqin (oynadan uzoq emasligi, kechqurun yoritkichning mavjudligi) bo‘lishi;
- kichik kutubxona shinam, jozibali bo‘lishi;





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

- kichik kutubxonaning javon, kitob tokchasi kabi jihozlari shunday joylashgan bo‘lishi kerakki, hatto eng kichik bola ham xohlagan vaqtda o‘ziga yoqqan kitobni boshqalarning yordamisiz qo‘lini cho‘zib bemalol oladigan bo‘lishi lozim;
- kichik kutubxona kitob tokchasi, ochiq vitrina ko‘rinishida bezatilishi mumkin, shuningdek;
- kichik kutubxonada tashkil etiladigan adabiyotlar tanlovi va pedagogik ishlar bolalarning yosh xususiyatlari va ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak;
- kichik kutubxonadagi materiallarni almashtirish bolalarning qiziqishi susaya boshlashi bilan bayramlar, mashhur sanalar va voqealar arafasida 2-2,5 haftada bir marta amalga oshiriladi, agar kitobga qiziqish yo‘qolsa, uni belgilangan vaqtni kutmasdan almashtirish mumkin. Shuningdek, kichik kutubxonani xalq ertaklari, mualliflik ertaklari, she‘rlar, hikoyalar tabiat, yil fasllariga oid adabiyotlar bilan to‘ldirilishi lozimligi ko‘rsatilgan.. Tarbiyachi bolalarga turli rivoyat, ertak va hikoyalarni og‘zaki aytib berish bilan birga ularni kitoblardan o‘qib berishi yoki ularning disklarda yozilgan namunalarini qo‘yib berishi mag‘sadga muvofiq bo‘ladi. Tarbiyachi bolalarga kitoblarni asrabavaylashni ham o‘rgatadi. Bola o‘qishni bilmasa-da, undagi ruhiy hissiyot va intuitsiya kitoblar dizayniga e‘tiborini kuchaytiradi, ya‘ni rangli, chiroyli va o‘ziga jalb qiluvchi kitoblarda bolalar o‘zlariga atalgan ma‘lumotlar borligiga ishonch hosil qilishadi. Maktabgacha yosh davrida ertak va hikoyalarni ko‘p eshitgan bola nutqi ravon, fikrlashi tiniq, xayolot olami cheksiz bo‘ladi. O‘tkazilgan tajribalar maktabgacha ta‘lim muassasalaridan ta‘limning navbatdagi bosqichiga borgan bolalar bilan oiladan borgan bolalar o‘rtasida ravon nutqning rivojlanish darajasi va mustaqil fikrlash imkoniyatlarida sezilarli farq borligi va bu holat bolaning maktabning boshlang‘ich sinflarida yaxshi baholarga o‘qishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatishini belgilamoqda. Bugungi shiddatli rivojlanish davrida ertak, hikoyalar aytishning o‘zi kifoya qilmaydi. Buning sababi kompyuter o‘yinlari, televideniya berilayotgan multfilmlar, ertak qahramonlari aks etgan harakatli o‘yinchoqlar bolada afsonaviy devlar, uchar gilamlar, yalmog‘iz





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

kampirlarga qiziqishini qiyinlashtiradi. Bu muammoni hal etishda xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirish ishlariga zarar keltirilmagan tarzda zamonaviy bugungi kun bolasining orzu-istaklari, hayollariga moslashtirilgan mazmundagi voqea-hodisalarga boy ertak hikoyalar, she‘rlar, topishmoq-u tez aytishlar yaratish zarur. Yaratilgan asarlar bola dunyosining taraqqiyotiga ta‘sir etuvchi kuch bo‘lib xizmat qilishi kerak. Bola yaratilgan asarlarni tinglar ekan, o‘zini va o‘zligini anglash, atrof-muhit, tabiatni qadrlash, odamlarga mehrlil, Vataniga sadoqatli bo‘lish, Ona diyorini ulug‘lash, undan faxrlanishni o‘rganadi. Bundan tashqari, eshitish va tushunish bola salomatligiga kuchli ta‘sir ko‘rsatib, boladagi turli psixologik kamchiliklarning bartaraf etilishiga sabab bo‘ladi hamda bola miya faoliyati faollashadi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilariga bolada kitobga nisbatan qiziqishni oshirish uchun quyidagi ish usullaridan foydalanishlarini tavsiya etamiz:

- tarbiyasi bolaga Vatanga muhabbat, otaonaga hurmat, do‘stlik, odob va mehnatsevarlikka oid tushunchalarni kitoblarda berilgan ertaklar, maqollar, rivoyatlar orqali singdirib borish jadvalini ishlab chiqishi kerak;
- har bir asar yuzasidan suhbatlar, sahna ko‘rinishlarini tashkil etish va mashg‘ulotlarda biror muammoli vaziyatlar yuzasidan «kelinglar, kitobimizga bir qaraylik-chi, unda nimalar yozilgan ekan?» kabi takliflar bilan kitobga tayanishga o‘rgatish;
- maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalar bilan kitobxonlik kechalari, muloqot, davra suhbatlari, «Kitob bayrami», «Kitob bobo tashrifi», «Ertakchi momo bilan uchrashuv», «Otam, onam va men ertak aytamiz» ko‘rik tanlovlari kabi tadbirlar tashkil etish;
- bolaga aytilgan ertaklar yakuniy qismini o‘zi to‘qishiga imkon berish;
- ertak va hikoya qahramonlari aks ettirilgan rasmlar ichidan aytilgan asar qahramonini topish yoki og‘zaki ta‘rif bo‘yicha uni tanish, aytilgan jumlar qaysi asardan parcha ekanini topish, eshitgan ertak, hikoyasi asosida rasm chizishga taklif etish kabi mashqlar





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

o‘tkazish;

- kun tartibiga «Yangi ertak soati»ni kiritish;
- maktabgacha ta’lim muassasasida tashkil etiladigan turli tadbir va musobaqalarda bola uchun tayyorlangan sovrinlar orasida albatta kitob bo‘lishiga e’tiborni qaratish;
- ota-onalar o‘rtasida bolaning kitobga munosabatini oshirishga qaratilgan davra suhbatlari, amaliy tadbirlar o‘tkazish, bilan birga ota-onalarning ham maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan kitoblar va uning mazmuni bo‘yicha bilim va tushunchalarini boyitib borish, bolalar uchun yaratilgan yangi kitoblar targ‘ibotini o‘tkazish kabi samarali usul va metodlardan foydalanish mumkin. N.I.Novikovning qayd etishicha, «Bolalarning murg‘ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta’sir etmaydi va barcha ibratlar ichida ota-ona ibratidan ko‘ra chuqurroq va mustahkamroq o‘rin oladigan ibrat yo‘q». Shu boisdan, bolada kitobga ijobiy munosabatning singdirilishida oila bilan hamkorlikning o‘rni muhimdir. Jumladan:
  - bolaga ko‘proq kitob olib berish;
  - ota-onalar maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan kitoblarini yangi nashrlari bilan tanishib borishlari, o‘qib chiqishlari hamda o‘zlari o‘qigan kitoblari haqida bolalariga so‘zlab berishlari;
  - ertak va hikoyalarni aytib berishda obrazlilikka e’tiborni qaratish;
  - har bir oilada shaxsiy kutubxonalarining bo‘lishi kabi o‘rinli fikrlar bildirildi.

Demak, tarbiyachi ota-onalar bilan ishlashda ularning aytgan fikr va mulohazalari amaliyotiga e’tiborni ko‘proq qaratishi zarur, ya’ni ota-onalardan farzandi uchun qanday kitoblar sotib olganligi, qanday ertak yoki hikoyalarni bilishi va farzandiga qay yo‘sinda aytib berayotgani, qaysi maqol, topishmoq, tez aytishlarni bilishi va ulardan qay maqsadda foydalanayotgani kabilar xususida ham fikrlashishi, tahlil qilishi va ularga metodik maslahatlar berishi zarur. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi ota-onalarga bolaning yoshi va individual xususiyatlariga muvofiq oila davrasida o‘qishi uchun turli asarlarni tavsiya qiladi, bolaga badiiy adabiyot bilan tanishtirish usullari va





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

yo'llarini ko'rsatadi. Ota-onalarning e'tiborini oilaviy teatrlarni tashkil etish, bolani o'yin faoliyati va rasm chizishga jalb qilish, uning badiiy adabiyot bilan tanishish yo'lidagi qiziqishini rivojlantirish imkoniyatiga qaratadi. Ota-onalarni bolaning nozik didini rivojlantirishga qaratilgan badiiy va multipikatsion filmlarni tanlashga yo'naltiradi. Ota-onalar bilan birgalikda bolalarning adabiy merosni faol bilishiga yo'naltirilgan tanlovlar, adabiyot viktorinalari, teatr sahna ko'rinishlari, yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Ota-onalarning fikr-mulohazalari va mavzuga doir adabiyotlar mazmunidan kelib chiqib, oila sharoitida kitob bilan ishlash usullarini taklif etamiz:

- bolaga sanamalar, takrorlanuvchi jumalari bo'lgan bolalar she'rlari, rasmi kitobchalardagi turli hikoyalarni muntazam ravishda o'qib berish;
- bolaga o'qib berish uchun unga hayvonlar, o'yinchoqlar, dinozavrlar, sirk va shu kabilar to'g'risidagi hikoyalarni tanlash;
- bola bilan muloqotga kirish uchun har bir imkoniyatdan foydalanish: kichkintoy bilan suhbatlashish, uning kitob va atrofdagi narsalar haqidagi savollariga javob berish; badiiy asarni tinglash vaqtida bolaga qalam, qaychi, qog'ozdan erkin foydalanishga ruxsat berish;
- kichkintoy so'zlab bergan hikoyalarni yozib borish;
- vaqti-vaqti bilan bolani kitob do'koniga yoki kutubxonga olib borish va bunda bolaga, birinchidan, rastalar yoki o'quv zalidagi kitobni varaqlab ko'rish; ikkinchidan, kitoblarni tanlash va o'zi bilan olib ketish imkoniyatini yaratish;
- farzandingizning qiziqishlarini qo'llabquvvatlash va sabrli bo'lish. Bulardan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar yozuvchilari bilan hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki tarbiyachi bola qalbi dunyosini amaliyotchi sifatida ko'radi va tushunadi. Uning ehtiyoj va qiziqishlarini eng yaxshi anglovchisi hamda biluvchisi hisoblanadi. Tarbiyachi bular to'g'risida oddiy tilda yozuvchi bilan fikrlashsa, yozuvchi ushbu fikr va g'oyalarni





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

sayqallab, bolaga ta'sir etuvchi so'z va gaplar, voqea-hodisalarni o'rinli mohirona ifodalab, adabiyotda yangi burilish yasaydi va eng yaxshi bolalar asari dunyoga keladi. Yaxshi va yangi asarlar bolaning ma'naviyatini shakllantirish bilan birga, uning kitobga muhabbatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining 2017 yil 9 iyundagi 5-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlanib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017 yil 17 iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2898.
2. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirining 2016 yil 30 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-2707-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar rejasi» to'g'risidagi 315-son buyrug'i.
3. Umarova V., Raxmonqulova Z. «Bolajon» tayanch dasturi bo'yicha adabiyot to'plami. – T.: «Bekinmashoq-plyus», 2012.
4. Mirjalilova S.S, Grosheva I.V, Nishanova M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kichik kutubxona yaratish, uning faoliyatini tashkil etish va bolalar badiiy adabiyotidan samarali foydalanish bo'yicha yo'riqnoma. / O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish respublika o'quv-metodika Markazida tashkil etilgan Ilmiy-metodik kengashning 2017 yil 25 yanvardagi navbatdan tashqari 1-sonli bayonnomasi qarori bilan tasdiqlangan.
5. Tafakkur gulshani. Vatandosh hamda xorijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so'zlari. / V.Voronsov kompozitsiyasi. Tarj. SH.Abdurazzoqova. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. sayti.

